

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

METSENLATLIK TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 14-avgustda qabul qilingan
Senat tomonidan 2019-yil 11-oktabrda ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi metsenatlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Oldingi tahrirga qarang.

2-modda. Metsenatlik to'g'risidagi qonunchilik

Metsenatlik to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining metsenatlik to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

(2-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

3-modda. Ushbu Qonunning qo'llanilish sohasi

Ushbu Qonun madaniyat va san'atni rivojlantirish maqsadida homiylik faoliyatini amalga oshirish chog'ida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Homiylik to'g'risida"gi Qonuni.

4-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

metsenatlik (metsenatlik faoliyati) — madaniyat va san'at, shuningdek ilm-fan, ta'lim, ma'rifat hamda madaniyat va san'atni rivojlantirish bilan bog'liq boshqa faoliyat sohasida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan homiylik faoliyati;

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Homiylik to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasi.

metsenat — metsenatlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs;

metsenatlik ko'magini oluvchi — metsenatlik ko'magi hisobiga madaniyat va san'atni saqlash hamda rivojlantirish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

metsenatlik ko'magi — metsenatlik faoliyati doirasida metsenatlar tomonidan beg'araz yoki imtiyozli shartlar asosida metsenatlik ko'magini oluvchilarga beriladigan mol-mulk, shuningdek ular uchun bajariladigan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlar va qo'llab-quvvatlashning boshqa turlari.

2-bob. Metsenatlik faoliyatining maqsadlari, prinsiplari va kafolatlari

5-modda. Metsenatlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari

Metsenatlik faoliyati quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasining madaniy meros obyektlarini saqlash, muhofaza qilish va ulardan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish;

madaniyat va san'at sohasidagi kasbiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash;

O'zbekiston Respublikasining madaniy meros obyektlarini saqlash, muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat dasturlarini hamda boshqa dasturlarni, loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etish;

madaniyat va san'at sohasidagi yosh iste'dodlarni va arboblarni qo'llab-quvvatlash;

jismoniy va yuridik shaxslarning madaniyat va san'atni rivojlantirishda ishtirok etishi uchun ma'naviy rag'batlantirish omillarini hamda boshqa omillarni kengaytirish.

Metsenatlik faoliyati madaniyat va san'atni rivojlantirish bilan bog'liq boshqa maqsadlarda ham amalga oshirilishi mumkin.

[LexUZ sharhi](#)

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 1-bandi.

6-modda. Metsenatlik faoliyatining asosiy prinsiplari

Metsenatlik faoliyati qonuniylik, ixtiyoriylik, insonparvarlik va hisobotlarning ishonchiligi prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Metsenatlik faoliyati O'zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasiga](#), ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

(6-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ixtiyoriylik prinsipi metsenatlarga metsenatlik ko'magini ko'rsatish huquqini va metsenatlik ko'magini oluvchilarga uchinchi shaxslar tomonidan majburiy ta'sir ko'rsatmasdan bunday ko'makni olish yoki olmaslik huquqini berishdan iboratdir.

Metsenatlik faoliyati jamiyatda insonning insonparvarlashtirilgan yashash muhitini shakllantirishga, uning ijodiy faoliyati erkinligini ta'minlashga doir intilishga asoslanadi.

Metsenatlar va metsenatlik ko'magini oluvchilar metsenatlik ko'magini berish hamda undan foydalanish jarayonlarida ishonchli hisobni yuritishi shart.

7-modda. Metsenatlik faoliyatining kafolatlari

Jismoniy va yuridik shaxslar metsenatlik faoliyatini ixtiyoriylik hamda bu faoliyatning maqsadlarini erkin tanlash asosida moneliksiz amalga oshirishga haqlidir.

Jismoniy va yuridik shaxslar yakka tartibda yoki birlashgan holda homiylik tashkilotlarini tashkil etib yoxud tashkil etmasdan metsenatlik faoliyatida erkin ishtirok etishga haqli.

Hech kim ushbu Qonunda nazarda tutilgan metsenatlik faoliyatining maqsadlarini va uni amalga oshirish shakllarini tanlash erkinligini cheklashga haqli emas.

[LexUZ sharhi](#)

Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Homiylik to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasi.

3-bob. Metsenatlik faoliyati

8-modda. Metsenatlik faoliyatining subyektlari

Metsenatlar va metsenatlik ko'magini oluvchilar metsenatlik faoliyatining subyektlaridir.

O'zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari metsenatlar bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining rezidentlari metsenatlik ko'magini oluvchilar bo'lishi mumkin.

9-modda. Metsenatlik faoliyatida ommaviy axborot vositalarining ishtirok etishi

Ommaviy axborot vositalari:

metsenatlik faoliyatini rivojlantirishga, shu jumladan madaniyat va san'at sohasida aholining axborotga oid va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarni yoritishi;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

metsenatlik to'g'risidagi qonunchilikning ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;

(9-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

madaniyat va san'at sohasi organlari hamda tashkilotlari, shuningdek metsenatlik faoliyati subyektlari bilan madaniyat va san'atni rivojlantirish masalalari yuzasidan hamkorlik qilishi mumkin.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Ommaviy axborot vositalari qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

(9-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi PQ-4366-sonli "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.

10-modda. Metsenatlik faoliyatining oshkoraligi

Metsenatlik faoliyatining subyektlari metsenatlik ko'magini ko'rsatish fakti va uning maqsadlari to'g'risidagi axborotni jamoatchilik e'tiboriga yetkazish, shu jumladan ommaviy axborot vositalari va Internet jahon axborot tarmog'idagi axborot resurslari orqali yetkazish huquqiga ega. Bunday axborot faqat metsenatning roziligi bilan tarqatilishi mumkin.

11-modda. Metsenatlik ko'magini berish to'g'risidagi shartnoma

Metsenatlik faoliyati metsenat va metsenatlik ko'magini oluvchi o'rtasida tuziladigan metsenatlik ko'magini berish to'g'risidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Metsenatlik ko'magini berish to'g'risidagi shartnoma metsenatlik ko'magini berishning maqsadlari, shakli, shartlari, muddatlari hamda hajmini, shartnomaviy majburiyatlar bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda taraflarning javobgarligini, nizolarni hal etish tartibini, taraflarning rekvizitlarini, shartnoma tuzilgan sana va joyni, shuningdek bunday turdagi shartnomalar uchun qonunchilikda belgilangan yoki taraflardan birining arizasiga ko'ra kelishuvga erishish lozim bo'lgan boshqa muhim shartlarni nazarda tutishi kerak.

(11-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Metsenatning nomini, personallashtirish vositalarini majburan eslatib o'tish talabi va bunday eslatish shaklining belgilanishi metsenatlik ko'magini berish to'g'risidagi shartnomaning sharti bo'lishi mumkin.

Metsenatlik ko'magini berish to'g'risidagi shartnomada metsenatlik ko'magidan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat qilish mexanizmlari belgilanishi mumkin.

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 26-bobi.

4-bob. Metsenatlik faoliyatini amalga oshirishga davlatning ko'maklashishi

12-modda. Metsenatlik faoliyati subyektlari huquqlarining davlat kafolatlari va metsenatlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash

Metsenatlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan kafolatlanadi. Metsenatning metsenatlik faoliyatini amalga oshirish shakllarini tanlash huquqi cheklanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat metsenatlik faoliyatini quyidagilar orqali qo'llab-quvvatlaydi:

metsenatlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda tariflar bo'yicha imtiyozlar va preferensiyalar berish;

LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 54-bobi.

metsenatlarni davlat mukofotlari yoki boshqa mukofotlar bilan taqdirlash;

metsenatlarning nomlarini abadiylashtirish.

Oldingi tahrirga qarang.

Davlat metsenatlik faoliyatini qonunchilikka muvofiq boshqa yo'llar bilan ham qo'llab-quvvatlashi mumkin.

(12-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

13-modda. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining metsenatlik faoliyati sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi metsenatlik faoliyatini axborot va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash, metsenatlik faoliyati to'g'risida jamoatchilikning ijobiy fikrini

shakllantirish maqsadida:

metsenatlik faoliyati subyektlariga uslubiy va maslahat yordami ko'rsatilishini;

metsenatlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarning tashkil etilishi hamda o'tkazilishini;

Internet jahon axborot tarmog'ida metsenatlik faoliyati sohasida amalga oshirilayotgan loyihalar, shuningdek metsenatlik ko'magini potensial oluvchilarning uni olishdan manfaatdorligi to'g'risida axborot beruvchi ixtisoslashtirilgan veb-sayt yaratilishini hamda faoliyat yuritishini;

metsenatlik faoliyati to'g'risidagi axborotni to'plashni, tahlil qilishni, uning tarqatilishini;

metsenatlik faoliyatining ilg'or tajribasi umumlashtirilishini va uning tarqatilishiga ko'maklashishni;

madaniyat va san'atni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan metsenatlarni mukofotlash hamda ularning nomini abadiylashtirish yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

(13-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

[LexUZ sharhi](#)

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-dekabrdagi PQ-36-sonli "Madaniyat va san'atni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorining 2-bandi.

5-bob. Metsenatlik ko'magi

14-modda. Metsenatlik ko'magini ko'rsatish

Metsenat metsenatlik ko'magini oluvchilar sifatida shaxslarni, shuningdek metsenatlik ko'magini ko'rsatish shakllarini ushbu Qonun talablariga muvofiq mustaqil ravishda belgilaydi.

15-modda. Metsenatlik ko'magini ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari

Metsenatlik ko'magi O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi mumkin emas.

Oldingi tahrirga qarang.

Metsenatlik ko'magini olish metsenatlik ko'magini oluvchining davlat tomonidan moliyalashtirilishini qisqartirish uchun asos bo'lmaydi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

(15-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

16-modda. Nizolarni hal etish

Oldingi tahrirga qarang.

Metsenatlik faoliyati sohasida yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

(16-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

17-modda. Metsenatlik to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Metsenatlik to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

(17-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

18-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida

tushuntirilishini ta'minlasin.

Oldingi tahrirga qarang.

19-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

(19-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

20-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2019-yil 16-oktabr,
O'RQ-571-son

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.10.2019-y., 03/19/571/3920-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)